O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJON VILOYATI BALIQCHI TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 7 - iyul 77-1-18-Q/23 Baliqchi tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 14 iyundagi 348-F/20 sonli farmoyishi va shu xususidagi Andijon viloyat hokimining 2023 yil 16 iyundagi 168-1-0-Q/23-son qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 14 iyundagi “Respublikada havo xaroratining keskin isib ketishi natijasida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan yong‘inlar va boshqa noxush holatlaridan aholining hayoti va sog‘ligi, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining mol-mulkini muhofaza qilish, shuningdek, yong‘in xavfi yuqori bo‘lgan obyektlarda, yong‘in va texnika xavfsizligi talablariga rioya qilinishi holatini o‘rganish to‘g‘risida”gi 348-F/20 sonli farmoyishi va shu xususidagi Andijon viloyati hokimining 2023 yil 16 iyundagi 168-1-0-Q/23-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-,10- va 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 14 iyundagi Respublikada havo xaroratining keskin isib ketishi natijasida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan yong‘inlar va boshqa noxush holatlaridan aholining hayoti va sog‘ligi, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining molmulkini muhofaza qilish, shuningdek, yong‘in xavfi yuqori bo‘lgan obyektlarda, yong‘in va texnika xavfsizligi talablariga rioya qilinishi holatini o‘rganish to‘g‘rsida”gi 348-F/20 sonli farmoyishi va shu xususidagi Andijon viloyat hokimining 2023 yil 16 iyundagi 168-1-0-Q/23-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yong‘in xavfi yuqori bo‘lgan va aholi gavjum bo‘ladigan boshqa obyektlarda yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini o‘rganish bo‘yicha tuman ishchi gruxi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman ishchi guruhining o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari davlat organlari, mahalliy hokimliklar, boshqa tashkilotlar rahbarlari tomonidan so‘zsiz bajarilishi uchun majburiy hisoblanishi belgilab qo‘yilganligi;

4. Tadbirkorlik subyektlariga tegishli obyektlarning yong‘in xavfsizligi holatini o‘rganish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o‘tkazish hisoblanmasligi inobatga olinsin.

5. Tuman ishchi guruhiga;

-bir kun muddatda obyektlarning yong‘in xavfsizligi talablariga muvofiqligini o‘rganish bo‘yicha tuman ishchi guruhining tashkiliy yig‘ilishini o‘ztkazishi hamda ishchi guruh a’zolari o‘rtasida vazifalar taqsimlanishini ta’minlash;

-obyektlarda yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi holatining tizimli o‘rganilishini tashkil etish;

-hududiy ishchi guruhlar faoliyatini muvofiqlashtirishi hamda ularga yuklangan vazifalarni bajarishda yuzaga kelgan muammolarni tezkor bartaraf etilishini ta’minlash;

-2023 yil 15 iyulga qadar bajarilgan ishlar natijalari to‘g‘risida viloyat hokimligiga axborot kiritish vazifasi yuklatilsin.

6. Tuman ishchi guruhi (M.Mamatov):

-obyektlarda, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga o‘rganish hamda mavjud muammova nosozliklarni bartaraf etish;

-obyektlarning kommunikatsiya (elektr va gaz) tarmoqlarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish va profilaktika xizmatlari ko‘rsatishni tashkil etish;

-ommaviy axborot vositalari orqali obyektlarda yong‘in kelib chiqishining oldini olish, tegishli uskunalardan to‘g‘ri va xavfsiz foydalanish bo‘yicha maxsus teleko‘rsatuvlar, radioeshittiruvlar va davra suhbatlari uyushtirish;

-obyektlarda yong‘inlarning oldini olish bo‘yicha tadbirkorlik subyektlari va aholi orasidakeng qamrovli targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

-amalga oshirilgan ishlar yuzasidan respublika ishchi guruhiga kunlik ma’lumotlarni o‘z vaqtida va to‘liq taqdim etib borilishini ta’minlash;

-2023 yil 15 iyulga qadar amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida ma’lumotni viloyat ishchi guruhiga kiritish vazifalari yuklatilsin.

7. Tuman ishchi guruhi va tegishli idora va tashkilotlarga yuzaga

kelgan muammolarni joyida hal etish bo‘yicha shaxsiy mas’uliyat yuklatilsin.

8. Tegishli tashkilootlar va mahalla fuqarolar yig‘ini raislari:

-tuman ishchi guruhining o‘rganish yakunlari bo‘yicha aniqlangan kamchiliklar va muammolarning tezkor bartaraf etilishini ta’minlash;

-tuman ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi hamda tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi bilan birgalikda o‘rmonlarda yong‘inga qarshi alohida rejim o‘rnatish choralarini ko‘rish;

-obyektlar Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 oktabrdagi 649-son qarori bilan tasdiqlangan “Yong‘in xavfsizligi qoidalari” talablariga muvofiq bo‘lishiga jiddiy e’tibor qaratish vazifalari topshirilsin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Mamatov zimmasiga yuklatilsin.

Baliqchi tuman hokimi **J.Abdurayimov**

Baliqchi tuman hokimining
2023-yil 7-iyuldagi
77-1-18-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Yong‘in xavfi yuqori bo‘lgan va aholi gavjum bo‘ladigan boshqa obyektlarda yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini o‘rganish bo‘yicha

TUMAN ISHCHI GURUH TARKIBI

M.Mamatov – tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommuna xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, *ishchi guruhi rahbari*

E.Xaydarov - Favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i, *ishchi guruhi rahbarining o‘rinbosari*

I.Toshkanov - Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi bosh mutaxasisi

S.Oxunov - Qurilish bo‘limi boshlig‘i

SH.Sattarov – Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari

A.Qirg‘izov – Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i

G‘.Qodirov – Andijon davlat o‘rmon xo‘jaligi baliqchi uchastkasi boshlig‘i

A.Yakubov - “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Baliqchi tuman filiali rahbari

A.Xamidov - “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Chinobod filiali rahbari

A.Jaloldinov - “Hududgaz Andijon” gazta’minoti Baliqchi fililari rahbari

R.Qo‘ziboyev – “Baliqchi tuman oziq-ovqat dexqon bozori**”** raxbari

Izoh: Ishchi guruh a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, guruh tarkibiga ularning lavozimiga yangi tayinlangan shaxslar kiritiladi.